

**SHAHRISABZ SHAHRIDAGI OBIDALARDA FOYDALANILGAN QURILISH
ASHYOLARINING TARIXIY MA'LUMOTLARI**

dos.(t.f.n)Shadmanova Z.S., ass Xoltayeva A. K., Mag. Qoraboyev D. A.
Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti

Qisqacha mazmuni: O'rta Osiyo xalqlarining ulkan qurilish madaniyati bizga xujjatli dalil sifatida arxitektura yodgorliklarini qoldirgan. Bu yodgorliklarning aksariyatida bog'lovchi qorishma sifatida gips - ganchning bir turi qo'llanilgan.

Аннотация: Огромная курильская культура народов Центральной Азии оставила нам архитектурные памятники как свидетельство своей силы. В большинстве этих памятников в качестве связующей смеси использовался гипсовый крючок.

Annotation: The huge Kuril culture of the peoples of Central Asia has left us architectural monuments as evidence of its strength. In most of these monuments, a plaster hook was used as a binding mixture.

Kalit so'zlar: ganch, me'moriy yodgorliklar, maqbara, restavrasiya, konservasiya, mustahkamlash, shikastlanish, deformatsiya, vayronagarchilik, vizual va batafsil muhandislik

Ключевые слова: крюк, архитектурные памятники, мавзолей, реставрация, консервирование, укрепление, повреждение, деформация, разрушение, визуальное и детальное проектирование

Keywords: hook, architectural monuments, mausoleum, restoration, conservation, strengthening, damage, deformation, destruction, visual and detailed design

Asosiy matn: O'zbekiston tarixida Amir Temur va Temuriylar davri alohida salmoqli o'ren egallaydi. Amir Temur jahon tarixida buyuk, qudratl va gullab yashnagan davlat barpo etgan sarkarda va davlat arbobi hisoblanadi. Uning bunyod ettirgan me'morchilik obidalari qurdirgan asora-atiqlari hozirgi kunda ham Vatanimizning ko'rkiga ko'rk husniga husn qo'shib turibdi.

Amir Temur davridagi davlat tizimi, boshqaruva tartiblari, diplomatik munosabatlar, davlatlar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlar ishlab chiqarish va savdo-sotiqning rivojlanishiga yaxshi shart-sharoitlar yaratilgan. Amir Temur ilm fan ahliga g'amxo'rlik ko'rsatganligi, uning tarix oldida buyuk siymo ekanligidan dalolat beradi. Amir Temur buyuk sarkarda bo'lgan, buni uning harbiy yurishlari vaqtidagi olamshumul g'alabalarida ham ko'rshimiz mumkin. Irodali, uzoqni ko'ra biluvchi va mard inson bo'lgan. Harbiy sa'nat tarixi Amir Temurni jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida tan oladi. Harbiy qo'mondonga beriladigan eng xolis baho uning janglarida erishgan yutuqlari hisoblanadi. Uning harbiy qo'shin tuzilishi va harakat olib borishi bo'yicha o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, u o'zidan avvalgi harbiy sohadagi yutuqlardan foydalangan holda ko'pgina o'ziga xos muhim jihatlarni o'zida aks ettirgan.

Temur Movarounnaxrdagi ahvolni butunlay o'zgartirib yubordi. Yo'llar qurib, ko'priklar soldirdi, Toshkent atrofida kanallar o'tkazildi. Buxoro, Shahrисabz, Farg'onada karvon saroylari va boshqa qurilishlar bilan birga irrigatsiya inshootlari ham qad ko'tardi. Shaharlar, qishloqlar, xammomlar, madrasalar, maqbaralar qurilishi o'sha davr uchun misli ko'rilmagan miqyosda olib borildi. Qurilishga maxalliy arxitektor - ustalar - soxibi xunarlardan tashqari Temur zabit etgan o'zga mamlakatlarning ko'plab quruvchilar, me'morlari jalb etildi. O'n to'rtinchasi asrning oxiri o'n beshinchi asrning boshida Movarounnaxr - O'rta Osiyoda yangicha san'at yuzaga keldi.

O'rta Osiyo xalqlarining ulkan qurilish madaniyati bizga xujjatli dalil sifatida arxitektura yodgorliklarini qoldirgan. Bu yodgorliklarning aksariyatida bog'lovchi qorishma sifatida gips - ganchning bir turi qo'llanilgan.

Ganch, Gaja, Gech bularning bari bir xil materialdan tayyorlangan O'rta Osiyo loyi bo'lib, u o'ninchisi asrdan o'n sakkizinchisi asrgacha juda ko'p qo'llanilgan. Ganch uchun xom ashyoni

maxalliy alebastr bergen. Xom ganchning rangi ko'kimir - kulrang va kulrang- sarg'ish to oq ranggacha, uni bur yoki ganch deyishgan.

Ganchning bu turi yer ostida 5-10 metr chiqurlikda joylashib, kar'yer usuli bilan qazib olinadi. O'rta Osiyoda arziq deb yuritilgan maxalliy alebastrning turi ma'lum bo'lgan, u yer satxiga yaqinroq joylashib, ba'zida yer ustiga ham chiqib qoladi.



Arziq tashki
ko'rinishi grek
gubkasiga o'xshab
ketadi, rangi quyuq
sariq, juda po'k va
yengil. Ganch
xumdonlarda yoki
boshqacha aytganda
yer ustiga joylashgan
dumaloq pechlarda
kuydirilgan.

Kuydirilgan ganch sovigach uzun arqonga osilgan temir bolg'a bilan urib maydalangan. Maydalangan ganch maxsus qo'l elagidan o'tkazilgan, bu elakni har xil joylarda Kalbir, Chor, Chit deb xam atashadi.

Ganchning qo'llanishishiga qarab elakning teshiklari xar xil kattalikda bo'lgan. Kuydirilgan ganch ubti tozalanmasdan maydalaniib elansa och kulrang «Tez ganch» olingan, kuygan qavati tozalanib, maydalangan va elangan oq ganchdan toza suvoq uchun ishlatiladigan «gul - Ganch» olingan.

Ganch qorishmasi tez qotib qolishi sababli, uni kamroq miqdorda odatda 10-12 kg material qorilgan. Kladka uchun qorishmaga ganchning o'zi toza ko'rinishda ishlatilmagan, balki qum bilan yoki lyoss tuproq bilan 1:1 dan 1:3 proporsiyagacha qo'shib ishlatilgan.

Eski ustalar kladkaga katta elakdan o'tkazilgan ganchni ma'qul ko'rishgan, chunki u mustahkamlikni ko'proq ta'minlaydi. Eski ustalarning fikricha ganch qorishmasida terilgan g'isht kladkasining mustahkamligi bir yildan keyin eng yuqori ko'rsatgichga ega bo'ladi.

Qum va g'isht uni inert qo'shimcha hisoblangan, lyoss, kul va ko'mir maxsus qo'llanish uchun ishlatilgan. Lyoss tuproq ganchga nisbatan sekinroq qotgani uchun, uning donlari shishib chiqishiga va shuning hisobiga sekinroq qotadi. Bu esa ganchning bog'lovchi xususiyatlarini to'liqroq namoyon bo'lishiga kafolot hisoblangan.

O't va mayda ko'chatlarni kuydirib olingan kul nam joylarda g'isht terayotgan paytda qorishmaga qo'shilgan. Agar imorat qurilayotgan yerning tuprog'i sho'r bo'lsa, izolyatsiya sifatida ikki uch qator g'isht maydalangan ko'mir va kul qo'shilgan qorishma bilan terilgan.

Maydalangan ko'mir va kul ganchga quruq holatida qo'shilgan, tuproq esa avval suvga aralashtirilib, undan keyin bu qorishmada ganch bilan kul aralashmasi eritilgan. Qir gidravlik qorishma bo'lib ko'pincha suvoq uchun ishlatilgan. Maxalliy ustalarning fikricha qir 400-500 xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. ABDURASHIDOV K. S. O'zbekistonidagi arxitektura yodgorliklarni konstruksiyalarini mustahkamlash va umrboqiyligini ta'minlash muommolari. //O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. Toshkent, MChJ "AL-VIR-2006. 4, 29 b.
2. Pugachenkova G. A, 1947, inv. 1517. Temur va Ulug'bek davridagi Shaxrisabz yodgorliklarining tarixiy va me'moriy xususiyatlari.
3. VINOGRADOV A. I. Hazrati Imom maqbarasini o'rganish va ta'mirlash bo'yicha ilmiy ma'ruza. O'zr guompk arxivai.
4. Zasyppkin B. N. Shaxrisabz yodgorliklari. Markaziy Osiyo me'moriy yodgorliklari. Qayta tiklash masalalari. Fri. Moskva: 1928.

5. PUGACHENKOVA G. A. Shahrisabzdagi Dorussiadat ansamblı, Temuriylar maqbarasini rekonstruksiya qilish to‘g‘risida. O‘zbekiston arxitektura tarixi va nazariyasiga oid materiallar. 1950,

6. Анализ конструкции, оценка технического состояния и разработка конструкций по обеспечению прочности и долговечности мавзолея Жахангир Мирзо в Шахризабзе. (Отчет) ИД-4-034. УДК 624.042. 7:6999.841 Т. 2009г.

7. Pugachenkova G.A. Termiz, Shaxrisabz, Xiva. Moskva 1976 g